$$X = [H^+]/[Ani]; \text{pH} = -\lg[H^+]$$

bu yerda: [Ani]-anilinning konsentratsiyasi, mol/l; $[H^+]$ -protonlar konsentratsiyasi, mol/l. Polimerlanish tezligi (V) va polimerlanish tezligi konstantalari (K) qiymatlari quyidagi tenglamalar yordamida hisoblab topildi:

$$V = \frac{X \cdot [Ani]}{3600 \cdot 100}, \quad K = \frac{V}{[Ox] \cdot [M]^{1,8}}$$

Namunalarning IQ-spektrlari «Agilent Technologies Cary 640 Series» FTIR, Raman spektrlari esa InVia RAMAN spektrometrlari yordamida olindi.

Olingan natijalar va ularning taxlili. Tadqiqotlarda dastlab turli oksidlovchilarning ANIning suvli eritmada oksidlanishi polimerlanishiga ta'siri o'rganildi. Oksidlovchilar (Ox) sifatida H_2O_2 , HClO_3 , FeCl_3 , $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$, $\text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8$, $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ kabi kimyoviy birikmalardan foydalanildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

ANIning polimerlanish unumiga oksidlovchi (Ox) tabiati va konsentratsiyasining ta'siri (Vanna moduli: 30:1); T= 297 K, t=24 soat

[Ox]	Oks.pot., V	[Ani]:[Ox]	Unum, %	[Ox]	Oks.pot., V	[Ani]:[Ox]	Unum, %
FeCl_3	0,77	1,00:0,75	10	$\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$	1,36	1,00:0,75	12
		1,00:1,00	20			1,00:1,00	38
		1,00:1,25	24			1,00:1,25	40
$\text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8$	2,01	1,00:0,75	38	H_2O_2	1,78	1,00:0,75	18
		1,00:1,00	76			1,00:1,00	40
		1,00:1,25	86			1,00:1,25	44
$(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$	2,06	1,00:0,75	42	HClO_3	1,45	1,00:0,75	12
		1,00:1,00	81			1,00:1,00	28
		1,00:1,25	88			1,00:1,25	32

1-jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, ANIning polimerlashda foydalanilgan oksidlovchi turi polimer hosil bo'lish unumiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni foydalanilgan oksidlovchining oksidlanish-qaytarilish potentsiali ortib borishi bilan ANIning polimerlanish unumi ham ortib bormoqda. Jadvaldan shuningdek, PANIning hosil bo'lish unumiga dastlabki reaksiyon aralashmadagi ANI va oksidlovchi konsentratsiyalarining nisbatlari ham katta ta'sir qilishi kuzatildi. Bunda ANIning oksidlanishi polimerlanishida foydalanilgan barcha oksidlovchilarning monomerga nisbati, ya'ni [Ani]:[Ox] nisbati 1,00:1,25 ga teng bo'lganda polimer hosil bo'lish unumi hamma holatlarda ham boshqa o'rganilgan nisbatlarga qaraganda yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Demak, anilinni $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ va $\text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8$ kabi oksidlovchilar ishtirokida polimerlash natijasida hosil bo'lgan polimerlarning unumlari ko'proq ekanligini ularning oksidlanish-qaytarilish potentsiallarini ishda foydalanilgan boshqa oksidlovchilarnikiga nisbatan yuqori ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Shuning uchun ham keyingi tadqiqotlar davomida ANIning suvli eritmada polimerlanishini o'rganish va polimer materiallar olish jarayonlarida oksidlovchilar sifatida $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ va $\text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8$ dan foydalanildi.

Tadqiqotlar jarayonida sintez qilingan PANIning emeraldin asos va tuz shakllarining identifikatsiyasi ularning IQ-Furье-hamda Raman spektrlarini tahlil qilish orqali amalga oshirildi (1-rasm).




1-rasm. PANIning emeraldin asos va tuz shakllarining IQ- (a) va Raman (b) spektrlari

PANIning asos shaklini IQ-spektrida kuzatilgan 3266 cm^{-1} sohadagi cho'qqi polimer zanjiridagi aromatik halqalar bilan bog'langan $-\text{NH}-$ guruhlar uchun xos hisoblanadi. PANIning tuz shaklini IQ-spektridagi 2980 cm^{-1} sohadagi cho'qqi protonlagan imin $-\text{NH}^+=$ guruhlar uchun xosdir. Polimer zanjiridagi xinoid va benzoid shakllari tarkibidagi $\text{C}=\text{C}$ bog' uchun harakterli cho'qqilar emeraldin asosida 1592 cm^{-1} , tuz shakli uchun esa 1576 cm^{-1} sohalarida kuzatiladi. Polimerning asos shakliga tegishli spektrdagi 1380 cm^{-1} sohadagi cho'qqi $\text{C}_{\text{benz}}-\text{N}=\text{C}_{\text{halqa}}$ bog'larning tebranishi uchun xos. Polimerning tuz shakli spektridagi 1245 cm^{-1} sohadagi cho'qqi esa uning qutblangan $\text{C}-\text{N}^+$ bog'ning tebranishi (qo'sh yoki oddiy bog') hisobiga yuzaga keladi.

PANIning Raman spektrlaridagi 1545 cm^{-1} (polimerning asos shakli) va 1552 cm^{-1} (polimerning tuz shakli) sohalaridagi cho'qqilar $-\text{C}=\text{C}-$ (benzoid va xinoid shakllardagi) guruhlar uchun xos. Polimer zanjiridagi $-\text{C}=\text{N}-$ guruhlar esa mos ravishda

1342 cm^{-1} (polimerning tuz shakli) va 1312 cm^{-1} (polimerning asos shakli) sohalarida sochilish cho'qqilarini hosil qiladi. Emeraldin asosining $\text{C}=\text{N}$ bog'i 1470 cm^{-1} sohada cho'qqi bersa, tuz shaklining qutbli $\text{C}-\text{N}$ bog'i uchun xos cho'qqi nisbatan yuqori sohaga siljishini, ya'ni 1342 cm^{-1} sohada cho'qqi berganini ko'rish mumkin.

ANIning suvli eritmalarida $\text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8$ va $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ ishtirokida polimerlanish kinetikasi 273 K haroratda o'rganildi.



Natijada, anilinning suvli eritmada $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ va $\text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8$ ishtirokida oksidlanishli polimerlanish jarayonida polimerning hosil bo'lish unumi reaksiya davomiyligi ortishi bilan oshib borishi aniqlandi. Tadqiqotlar davomida reaksiyon aralashma pH qiymati ANIning polimerlanish unumiga katta ta'sir qilishi aniqlanib, eng yuqori unum kislotali sharoitda hosil bo'lishi kuzatildi. Shu bilan birgalikda anilinning polimerlanish jarayoni avtotezlanish bilan borishi ko'rsatib berildi. Ushbu holat ANIni kislotali va ishqoriy muhitga ega bo'lgan eritmalarida polimerlanish jarayoniga ham taaluqli.

ANIning oksidlanishli polimerlanish jarayoniga reaksiyon aralashma harorati tasirini o'rganish natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

PANI hosil bo'lish unumiga reaksiyon aralashmadagi $[\text{Ani}]:[\text{Ox}]$ mol nisbati va harorat ta'siri ($[\text{HCl}]=0,1 \text{ mol/l}$, $[\text{Ani}]=0,5 \text{ mol/l}$, $t=22 \text{ soat}$)

[Ox] konsentratsiyasi, 0,5 mol/l	Unum, %		
	273K	283K	297K
(NH₄)₂S₂O₈			
2,50	24,50	19,80	18,20
3,75	42,20	41,20	39,20
5,00	81,50	68,50	59,70
6,25	88,10	76,80	76,80
K₂S₂O₈			
2,50	22,50	21,60	18,90
3,75	38,80	34,40	31,60
5,00	76,50	62,80	60,60
6,25	86,10	77,70	72,20

2-jadvaldagi keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, eritma haroratining ortishi bilan polimer hosil bo'lish unumi kamayib bormoqda. Bu monomerlarning kation mexanizmida polimerlanishi uchun xos xususiyat hisoblanadi.

ANIning polimerlanish jarayonini o'rganish davomida reaksiyon eritma pH qiymatining kamayishi kuzatildi (3-rasm), bu eritma pH qiymatining o'zgarishini aniqlash orqali monomerning polimerga aylanish darajasini hisoblab topish imkonini beradi.

Shuning uchun ham anilinning umumiy polimerlanish tezligi boshlang'ich bosqichlardagi polimerlanish tezligi reaksiyon aralashmaning pH muhiti qiymatining o'zgarishini aniqlash yordamida olingan natijalar asosida hisoblab topildi va uning qiymati har ikki oksidlovchi ishtirokida ham bir xil ko'rinishga ega bo'lib, quyidagi tenglama bilan ifodalanadi: $V=K^*[\text{Ox}] \times [\text{Ani}]^{1,8}$.

Ishda ANIning kation polimerlanish kinetikasi turli haroratlarda ham o'rganilib, jarayonning ba'zi bir kinetik parametrlarining qiymatlari hisoblab topildi (3-jadval).

3-jadval


ANIning turli oksidlovchilar ishtirokida kation polimerlanish jarayonining kinetik parametrlari. $[\text{Ani}]=0,5 \text{ mol/l}$, $[\text{Ox}]=0,5 \text{ mol/l}$

T, K	$V \cdot 10^5, \text{ mol/l}\cdot\text{s}$	$K_m \cdot 10^5$	$E, \text{ kJ/mol}$
Oksidlovchi-(NH₄)₂S₂O₈			
73	5,33	1,94	6,07
283	4,53	1,65	
297	4,33	1,58	
Oksidlovchi-K₂S₂O₈			
273	4,98	1,82	15,03
283	4,04	1,48	
297	2,93	1,07	

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ ishtirokida ANIning suvli eritmalarida kation polimerlanish tezligi $\text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8$ ishtirokida olib borilgana nisbatan yuqoriroq. Bu holatni jarayonning umumiy faollanish energiyasini kichikroq qiymatga ega ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Har ikki oksidlovchi ishtirokida ANIning polimerlanish jarayonlarining umumiy faollanish energiyalarining qiymatlari radikal polimerlanish jarayonlarinikiga qaraganda nisbatan ancha kichik bo'lib, bu ion polimerlanishning umumiy faollanish energiyalariga mos keladi.

ANIning oksidlanishli polimerlanish mexanizmiga aniqlik kiritish maqsadida uni suvli eritmada, $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ hamda radikal polimerlanish ingibitori sifatida gidroxinondan (para-digidroksibenzol, $\text{C}_6\text{H}_6\text{O}_2$) foydalangan holda 273-343 K harorat oralig'ida polimerlanishi tadqiq qilindi. Natijada, ANIning ingibitor ishtirokisiz polimerlanishi o'rganilgan haroratlar oralig'ining barchasida uning polimerlanishi sodir bo'lishi kuzatildi. Lekin, ingibitor ishtirokida esa ANIning polimerlanishi faqat 323 K

haroratgacha sodir bo'lishi aniqlandi. Bu ANning oksidlanishli polimerlanishi 323 K haroratgacha kation, undan yuqori haroratlarda esa radikal mexanizmida borishini ko'rsatadi. Olingan natijalar hamda ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ANning persulfatlar ishtirokida suvli eritmalarda oksidlanishli polimerlanishining quyidagi mexanizmi taklif qilindi:



Taklif qilinayotgan mexanizmlardan ko'rinib turibdiki ANI 323 K haroratgacha kation-radikal faol markazlar hosil bo'lishi natijasida kation, undan yuqori haroratlarda esa erkin radikal faol markazlar tomonidan initsirlangan radikal mexanizmida polimerlanishga uchraydi.

Xulosalar. ANning suvli eritmalarda oksidlanishli polimerlanishiga foydalanilgan oksidlovchi turining katta ta'siri borligi aniqlandi. Jarayonda avtotezlanish xodisasi kuzatilib, bu reaksiya natijasida xosil bo'layotgan polimerning ham ANning polimerlanish jarayoniga ma'lum bir darajada ta'siri bor ekanligini ko'rsatadi. Reaksiyon muhit haroratining ortishi polimerlanish tezligini kamayishiga olib kelishi aniqlandi. Tadqiqotlar natijasida ANning oksidlovchilar ishtirokida polimerlanishi past haroratlarda kation mexanizmida, yuqori haroratlarda esa radikal hisobiga boradi deb taxmin qilindi hamda reaksiyaning takomillashgan mexanizmlari taklif qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Namsheer K., Chandra S.R.. Conducting polymers: a comprehensive review on recent advances in synthesis, properties and applications.// RSC Advances. -2021, -V.11(10), -P.5659-5697.
2. Rasmussen S.C.. Conjugated and Conducting Organic Polymers: The First 150 Years.// ChemPlusChem. -2020, -V.85(7), -P.1412-1429.
3. Liu H., Li Q., Zhang S., Yin R., Liu X., He Y., Guo Z. Electrically Conductive Polymer Composites for Smart Flexible Strain Sensors: A Critical Review// JounHal of Materials Chemistry C, 2018, 6, P.12121-12141.
4. Сапурина И.Ю., Полианилин для защиты металлов от коррозии.// Коррозия: материалы, защита. -2003, -Т.5, -С.2-9.
5. Иванова В.Т., Курочкина Я.Е., Иванов В.Ф., Ильина М.В., Трушакова С.В., Шевченко Е.С., Бурцев Е.И., Симаков А.А., Манькин А.А., Носик Н.Н., Шнейдер М.М., Тимофеева А.В., Сапурина И.Ю.. Сорбция вирусов из растворов на полианилин, углеродные нанотрубки и наноккомпозиты на их основе// Вопросы вирусологии. -2011, -Т.4. -С.19-23.
6. Сапурина И.Ю., Шишов М.А. Электропроводящие полимеры для низкотемпературных топливных элементов. Основы водородной энергетики. Санкт-Петербург. Ред. Мошников В.А., Терукова Е.Е. Издательство СПб. «ЛЭТИ». -2010. -Глава 6. -С.141-182.
7. Jin Z., Hongling Z., Quan Q., Yanlian Y., Qingwen L., Zhongfan L., Xinyong G., Zuliang D.. Effect of Chemical Oxidation on the Structure of Single-Walled Carbon Nanotubes// J.Phys.Chem. B. -2003, -V.107, -P.3712-3718.



UDK: 1032(743)

Fayyoz XURRAMOVA,
Bioorganik kimyo instituti tayanch doktoranti
E-mail-khurramova1988@mail.ru,
Rejepov Quralbay Jadigerovich Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, k.f.n

Bioorganik kimyo instituti professori, kimyo fanlari doktori A.Matchanov taqrizi asosida

SUPRAMOLECULAR COMPLEX BASED ON NATURAL TRITERPENOIDS

Annotation

In this work, water-soluble supramolecular complexes of glycyrrhizic acid (GK) and glycyrrhizic acid monoammonium salt (MASGA) with different molar ratios were obtained with some anti-tuberculosis drugs.

Key words: Glycyrrhizic acid, monoammonium salt glycyrrhizic acid, supramolecular complex, immunomodulatory, acute toxicity.

СУПРАМОЛЕКУЛЯРНЫЙ КОМПЛЕКС НА ОСНОВЕ ПРИРОДНЫХ ТРИТЕРПЕНОИДОВ

Аннотация

В данной работе приводятся данные по получению водорастворимых супрамолекулярных комплексов глицирризиновой кислоты (ГК) и моноаммонийной соли глицирризиновой кислоты (МАСГК) с противотуберкулезными препаратами в различных молярных соотношениях.

Ключевые слова: Глицирризиновая кислота, моноаммониевая соль глицирризиновой кислоты, супрамолекулярный комплекс, иммуномодулятор, острая токсичность.

TABIYI TRITERPENOIDLAR ASOSIDA SUPRAMOLEKULAR KOMPLEKSLAR

Аннотация

Ushbu maqolada sil kasalligiga qarshi ishlatiladigan dori vositalari substansiyalari bilan gliksirizin kislotasi (GK) va gliksirizin kislotasi monoammoniyli tuzi (GKMAT)ning turli xil molyar nisbatlardagi suvda eruvchan supramolekular komplekslari olindi.


Kalit sozlar: Gliksirizin kislotasi, gliksirizin kislotasi monoammoniyli tuzi, supramolekular kompleks, sil, immunomodulyatorlik, o'tkir zaharlilik.

Kirish. Hozirgi kunda sil kasalligi aholi salomatligini tashvishga soladigan eng keng tarqalgan yuqumli kasalliklardan biri hisoblanadi. JSSTning 2022 yildagi ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisining 1/3 qismi faol bo'lmagan sil kasalligi bilan kasallangan hamda dunyo bo'yicha bu kasallik o'limning to'qqizinchi asosiy sababchisidir. Sil kasalligida qo'llaniladigan dorilarning ko'pchiligi sintetik dori vositalari va ularning organizm uchun ma'lum darajada nojo'ya ta'sirlari bor. Shuning uchun sintetik dori vositalarining salbiy holatlarini yo'qotish maqsadida o'simliklardan ajratib olingan biologik faol moddalar bilan modifikatsiya qilish orqali ularni suvda eruvchan holatga olib kelish, ta'sirchanligini oshirish, zaharligining kamaytirish va ularga sinergetik xususiyat berish imkoniyatlarini izlab topish dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Sil kasalligi – bu sil mikobakteriyalarini havo-tomchi yo'li orqali organizmga kirib borishi bilan rivojlanuvchi yuqumli kasallikdir [1]. Sil bakteriyasining hujayra yuzasida asosan, mikolik kislotasi mavjudligi sababli noodatiy mumsimon qoplamaga ega ekanligi aniqlangan [2]. 25% hollarda bakteriya qon oqimiga kirib, limfa tizimi, siydik-jinsiy yo'l, suyaklar, bo'g'imlarga ta'sir qilishi mumkin (Rivers va Mancera, 2008). Mycobacterium tuberculosis faol shaklda patogendir, lekin u immunitet tizimining reaksiyasini oldini olish uchun asosan xost ichida yashirin patogen bo'lmagan, ya'ni faol bo'lmagan shaklda yashirinadi. Faol bo'lmagan shakl granulomalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Faol shaklga o'tishi esa mezbora immunitet himoyasining zaiflanishi bilan bog'liq (Dusati va boshq., 2006). Sil kasalligining yashirin infeksiyasi odatda bitta antibiotik bilan davolanadi. Biroq bakteriyalarning antibiotiklarga chidamliligi xavfini kamaytirish uchun faol sil kasalligini davolashda bir nechta antibiotiklarning kombinatsiyasi qo'llaniladi. Sil kasalligiga qarshi dorilarni doimiy ravishda qabul qilish jiddiy yon ta'sirlarga olib keladi. Masalan, izoniazid va pirazinamidni ortiqcha qabul qilish jigar yetishmovchiligini keltirib chiqaradi, bu esa izoniazid almashinuvi jarayonida gidrazinning ortiqcha hosil bo'lishi tufayli o'limga olib keladi. Etambutoldan doimiy foydalanish oftalmik muammolarni keltirib chiqaradi [3].

Sil kasalligini davolash 6-8 oygacha bo'lgan vaqt oralig'ida antibiotiklar kombinatsiyasini qabul qilish bilan kechadi. Sil kasalligida qo'llaniladigan birinchi toifali dorilar – izoniazid (INH), rifampitsin (RIF), pirazinamid (PZA) va etambutolgidroxlarid (EMB)dir. Agar bakteriya shtampi bu dorilarga chidamli bo'lib qolsa, ikkinchi qatorli dorilar qo'llaniladi. Bularga streptomitsin, kanamitsin, florxinolonlar, etionamid va paraaminosalitsil kislotasi kiradi. Odatda ikkinchi darajali dorilar birinchi darajali dorilarga qaraganda samarasi past va toksikligi yuqoriroqdir [4].

Hozirgi kunda ko'plab farmakologik faol dori vositalari tabiiy resurslardan ya'ni, dorivor o'simliklardan olinayotganligi barchamizga ma'lum. Dorivor o'simliklar inson va jamiyat salomatligi uchun katta ahamiyatga ega. Ana shunday o'simliklardan biri shirinmiya (Glycyrrhiza glabra) o'simligidir. Bu shifobaxsh o'simlik juda qadim zamonlardan ma'lum. Shirinmiya o'simligi ildizi tarkibidagi asosiy biologik faollikni beradigan triterpenoidlar bu – Gliksirizin kislotasi (18β-Glycyrrhetic acid-GA) va Gliksirret kislotasi (Glycyrrhizin-GI), ko'plab farmakologik xususiyatlarga ega. Masalan, viruslarga, yallig'lanishga, o'sma kasalliklariga, bakteriyalarga qarshiligi va hattoki, sil kasalligini davolashi mumkinligi adabiyotlarda keltirilgan [5,6].




erimaydigan yoki umuman erimaydigan ko'pgina dori vositalari GK va uning tuzlari ishtirokida suvda eruvchan holatga o'tishi ko'rsatilgan.

So'ngi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, GIKning C-30 holatidagi modifikatsiyalangan GIK va uning piperazin analogi izoniazid, rifampitsin va streptomitsin bilan birgalikda sil kasalligiga qarshi samarali vosita bo'lishi mumkin. GIKning ushbu dori vositalari bilan modifikatsiyalari *Mycobacterium bovis* ga qarshi faollikni namoyon etgan [7]. YAMR-spektroskopiya metodi orqali, GK ni sil kasalligiga qarshi tubazid va ftivazid moddalari bilan kompleks hosil qilish mexanizmi o'rganilgan. Tubazid va ftivazid GK bilan donor-akseptor bog'lari orqali bog'langanligi aniqlangan. Bu yerda elektron juftlari donor o'rnida, azotning pirimidin halqasi ishtirok etishi ko'rsatilgan. α -protonlar signallarining kengayishi azot atomining GK uglevod qismi bilan o'zaro molekulararo vodorod bog'i orqali bog'lanishi aniqlangan [8].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, ushbu ajoyib birikmalarni qo'llanilish sohaslarini kengaytirish, GK va GKMAT asosida yangi preparatlarni ishlab chiqarish va yana ma'lum bo'lgan dorivor vositalarni GK va uning hosilalari yordamida modifikatsiyalash va ularni biologik faolligini o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda.

Sil kasalligiga qarshi qo'llaniladigan dorilarning zararli yon ta'sirlari va uzoq davom etishi silga qarshi kurashish muommasini yanada murakkablashtiradi. Friis-Moller va boshqalar (2002) Xitoyda o'suvchi shirinmiya o'simligi ildizlaridan ajratilgan flavonoidlar – likoxalkonlar bir nechta sil kasalligi turlariga *M. bovis*, *M. tuberculosis*, *M. kansasii* va *M. marinum* turlariga qarshi faollik ko'rsatganligini ta'kidlaydilar [9]. Gupta va boshqalar (2008) *Glycyrrhiza glabra* tarkibida mavjud bo'lgan asosiy flavonoid – glabridinning 1,3 holatlarida ikkita fenol guruhi borligi sababli mikroblarga qarshilik ko'rsatish mumkinligi haqida ma'lumot bergan.



Ularning tadqiqodi shirinmiya ildizi tarkibidagi - glabridinning *M. Tuberculosis* ga qarshi faolligini o'rganishga qaratilgan edi. Biologik faollikni nazorat qilish bilan fitokimyoviy tahlillar shuni ko'rsatdiki, glabridin 29,16 g/ml konsentratsiyada *Mycobacterium tuberculosis* ning H37Ra va H37Rv shtamplariga gram-musbat va gram-manfiy bakteriyalariga qarshi faollik ko'rsatgan [10].

Foydali birikmalarga boy bo'lgan shirinmiya ildizidan samarali foydalanish maqsadida yana bir guruh olimlar tomonidan shirinmiyaning atsetonli ekstraktini in vitro usullar orqali sil kasalligiga qarshi faolligini o'rgandilar. Ekstraktning in vitro faolligi Resazurin Microtiter Plate Assay (REMA) usuli va koloniyalarni hisoblash usuli bilan sinovdan o'tkazilgan. Sil kasalligiga qarshi faollikni qo'shimcha baholash uchun model sifatida inson makrofagi U937 hujayra liniyalari tanlangan, chunki *Mycobacterium tuberculosis* asosan infeksiyaning dastlabki bosqichlarida makrofaqar ichida joylashgan bo'ladi [11].

Glitsirritsin kislotasi (18- β GK) ma'lum faollikka ega bo'lgan shirinmiya ildizi tarkibidagi asosiy biologik komponentdir. Tadqiqotlarga ko'ra 18- β GKning piperazin bilan olingan kompleksi *Mycobacterium bovis*ga qarshi kuchli antimikobakterial xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan. Muhimi shundaki, 18 β GK bilan dorilarga chidamli shtamlarga qarshi birinchi qator dori vositalari izoniazid (INH), rifampitsin (RIF) va streptomitsin (SM)lar bilan sinergetik ta'sir ko'rsatgan [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ob'ekti shirinmiya o'simligi tarkibidagi asosiy triterpenoidlar (GK va GKMAT) hamda sil kasalligiga qarshi qo'llaniladigan dori vositalari substansiyalari olingan.

Buning uchun GKni 96%li etil spirtida eritib olindi va intensiv aralashtirilib turilgan holda preparatlarni substansiyalari etanolga 10% li eritmasi va ustiga 1:1 nisbatga yetguncha distillangan suvdan hamda tegishli dori vositalari substansiyalari qo'shildi. Reaksiyon aralashma 5-6 soat davomida aralashtirilib turildi va organik qism rotorli haydagichda haydab olindi, suvli qoldiq esa liofil usulda quritib olindi. O'rtacha unum 87-95% tashkil qildi.

GKM-PI (4:2:1) molekular kompleksini olish; Dastlab 200 ml tubi yassi kolbaga 3,292 gr (4 mmol) GKMAT ni solib 50 ml etanolga to'liq eritildi va unga 0,246 gr (2 mmol) pirazinamid hamda 0,137 gr (1 mmol) izoniazid preparatlari substansiyalari qo'shildi, so'ngra magnit aralashtirgichda intensiv aralashtirilgan holda 50 ml suv qo'shilib xona haroratida 5-6 soat aralashtirildi. So'ngra rotorli bug'latgichda 500S haroratda spirtli qism haydab olindi va suvli qism suyuq azot muhitida muzlatib liofil uskunasi yordamida quritib olindi. Olingan modda och sariq rangli kukunsimon. T.suyuq.(parch) 175-1800S. UB, λ max, nm(lge) 260(5.01), IQ spektr; (ON)=3318, ν (SN, SN2, SN3)=2925, ν (S11=O, C=C)=1657, ν (SOO-)=1593, δ (SN2, SN3)=1456, 1417, δ (NH4+)=1366, δ (SN)=1212, 1169, δ (S-O-S, S-ON)=1043, δ (=CH)=981.


Yuqoridagi usul asosida GK va GKMATlarning sil kasalligiga qarshi ishlatiladigan dori preparatlari substansiyalari bilan tkrlil xil nisbatda supramolekular komplekslari olindi.

Tahlil va natijalar. Glitsirritsin kislotasi (GK) va glitsirritsin kislotasi monoammoniyli tuzi (GKMAT)ning sil kasalligiga qarshi qo'llaniladigan dori vositalari substansiyalari bilan supramolekular komplekslari olindi. Olingan kompleksning ba'zi fizik-kimyoviy kattaliklari suyuqlanish haroratlari, eruvchanligi aniqlandi. Yupqa qatlamli xromatografiya uchun sistemalar tanlanib, moddaning Rf qiymatlari hisoblandi. Hidrodinamik xususiyatlari o'rganildi hamda komplekslarning UB va IQ spektrlari olindi va natijalari tahlil qilindi. Olingan komplekslarning kukunli difraktometriya usuli asosida kristallik va amorflik darajasi aniqlandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Olingan supramolekular komplekslarning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari

Комплекслар	Мол нисбати	R _f киймати	T.с., °C (парч)	УБ, λmax, нм(лге)	Кристаллик ва аморфлик даражаси %
ГК-ПИ	4:2:1	0,51	187-189	260 (5,02)	13,03 86,97
ГКМ-ИЛПР	6:0,5:1,5:2:1	0,54	175-180	259 (5,15)	9,80 90,20
ГКМ-ИРПЭ	6:1:2:5:3,9	0,46	160-165	226 (4,06)	8,36 91,64
ГКМ-ИЭ	4:1:2	0,52	180-185	262 (4,90)	14,63 85,37
ГК-ИРПЭ	6:1:2:5:3,9	0,48	155-160	265 (5,23)	9,14 90,86

Olingan komplekslarning gidrodinamik xususiyatlarini tadqiq qilish maqsadida GK va GKMAT asosida olingan komplekslarning qovushqoqligi o'rganildi. Dastlabki GKMAT asosida olingan kompleksning keltirilgan qovushqoqligini konsentratsiyaga bog'liqligi o'rganildi. Keltirilgan qovushqoqlik konsentratsiya oshishi bilan ortib borishi kuzatildi.




1-расм. ГКМ-ПИ 4:2:1 нисбатда олинган комплекснинг сувли эритмаси келтирилган қовушқоқлигининг концентрацияга боғлиқлиги (25°C)

Комплекс бирикмаларнинг қовушқоқлигига муҳит мочеви́на (молекулараро водород боғларни парчаловчи) ва ксило́за (системадаги гидрофоб таъсирлашувни экранловчи) ҳамда КСl (электролит) эритмаларидаги қовушқоқликлари ҳамда ҳароратнинг таъсирлари ҳам ўрганилди.



2-расм. 0,01M мочеви́на муҳитида ГКМ-ПИ 4:2:1 нисбатда олинган комплекснинг келтирилган қовушқоқлигини консентратсияга боғлиқ егри чизиг'и (25 °C)

Olingan komplekslarning 0,1% li suvli eritmasi qovushqoqligining haroratga bog'liqligi o'rganildi. Bunda 250S dan 350S harorat oraliq'ida kompleksning keltirilgan qovushqoqligi kamaydi, 350S dan 400S gacha bo'lgan oraliqda keltirilgan qovushqoqlik keskin kamayib borishi kuzatildi va 400S dan 450S oraliq'ida esa sekinlik bilan kamayib bordi.



3-расм. GK-PI 4:2:1 нисбатда олинган комплекснинг сувли эритмаси келтирилган қовушқоқлигининг ҳароратга боғлиқлиги егри чизиг'и.

Odatda moddalarning qovushqoqligi polimer moddalariga xos bo'lib, bu holat ularning bo'kishi hisobiga sodir bo'ladi. Lekin, supramolekular komplekslar quyimolekular moddalardir. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki: kompleks hosil bo'lishida odatdagi ta'sirlashuvlardan boshqa kuchlar ham bor ularga ma'lum harorat berilganda hosil bo'lib, harorat ortganda esa o'zgarishi mumkin. Bu xuddi molekular o'rtasidagi "oriyentatsion ta'sir"ga o'xshaydi. Issiqlik ta'sirida molekulaning qutbli qismlaridagi zaryadlar qisman oshadi, natijada qarama-qarshi zaryadlar bir-biridan itarilishi hisobiga mitsellaning hajmi kattalashadi, oquvchanlik kamayib, qovushqoqlik esa ortishi mumkin.

Olingan komplekslarning biologik faolligi o'rganildi. Barcha tadqiqotlar kamida 10-14 kun karantinda bo'lgan sog'lom hayvonlarda o'tkazildi. O'tkir zaharlanishni o'rganish umumiy qabul qilingan usul bo'yicha 18-22 g og'irlikdagi oq sichqonlarda (har ikkala jinsda) o'tkazildi, har bir guruhda 6 ta hayvon (oltita tajriba va bitta buzilmagan guruh), jami 42 ta hayvon ishlatilgan. Eksperimental hayvonlarning o'limi natijalariga asoslanib, biz sinovdan o'tgan preparatning LD50 aniqladik.

GK-IRPE preparatning o'tkir toksikligi ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari: LD50=6600(3882÷11220)mg/kg. GK-IRPE preparatning o'tkir zaharliliği ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari: LD50=4050(3375÷4860) mg/kg.

Xulosa va takliflar.

1. Birinchi bor GK bilan sil kasalligiga qarshi qo'llaniladigan dori vositalari asosida turli xil molyar nisbatlardagi suvda eruvchan supramolekular kompleks birikmalari olindi.

2. Olingan kompleks birikmalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va kimyoviy tuzilishi, hamda hosil bo'lishida ishtirok etadigan bog'larning tabiati optik spektroskopiya usullari asosida tahlil qilindi.

3. GK-IRPE (GK) va GKM-ILPR (GKMAT) preparatlarining o'tkir toksikligi va immunomodulyator faolligi bo'yicha klinikadan oldingi tadqiqotlar o'tkazildi. Preparatning o'tkir toksikligini o'rganish natijasida GK-IRPE (GK) sinov preparati juda zararsiz ekanligi aniqlandi, chunki preparat "Amalda zaharli bo'lmagan" beshinchi toksiklik sinfiga tegishli. Preparatning o'tkir toksikligini o'rganish natijasida GKM-ILPR (GKMAT) sinovdan o'tgan preparatning yuqori xavfsizligi aniqlandi, chunki preparat "Past toksiklik" to'rtinchi toksiklik sinfiga tegishli.

4. Immunomodulyatorlik faollikni o'rganish natijalariga ko'ra, GK-IRPE (GK) preparati va GKM-ILPR (GKMAT) preparati immunomodulyator faollikka ega va immunomodulyator sifatida o'rganish uchun istiqbolli ekanligi aniqlandi.

АДАБИЁТЛАР

1. Hawn T.R, Day TA, Scriba TJ, Hatherill M, Hanekom WA, Evans TG, Churchyard GJ, Kublin JG, Bekker LG, Self SG. Tuberculosis vaccines and prevention of infection. *Microbiology and Molecular Biology Reviews*. 2014; 78 (4): 650-671.
2. Ryan KJ, Ray CG. *Mycobacteria*. Sherris Medical Microbiology: An Introduction to Infectious Diseases. New York. 2004; 439.
3. Birhanu Mekassa, Priscilla G.L. Baker, Bhagwan Singh Chandravanshi, Merid Tessema. Sensitive electrochemical determination of ethambutol in pharmaceutical formulation and human urine at nicel nanoparticles / electrochemically reduced graphene oxide modified electrode. *Chemical Society of Ethiopia and The Authors*. 2019, 33 (2), 215-228.
4. Current Overview of Anti-Tuberculosis Drugs: Metabolism and Toxicities. *Mycobacterial Diseases* Susmita S., Advaita G., Hoon S. 2016, 6:2.
5. Baltina L.A. Chemical modification of glycyrrhizic acid as a route to new bioactive compounds for medicine. *Current Medicinal Chemistry*. 2003. -V.10.-P.155-171.
6. Толстикова Г.А., Балтина Л.А., Гранкина В.П., Кондратенко Р.М., Толстикова Т.Г. Солодка: Биоразнообразие, химия, применение в медицине. Новосибирск: Гео. – 2007. – 311 с.
7. Zhou X. et al.: Antimycobacterial and Synergistic Effects of 18β-Glycyrrhetic Acid or Glycyrrhetic acid-30-piperazine in Combination with Isoniazid, Rifampicin or Streptomycin against *Mycobacterium bovis*. *Phytother. Res.*, 26, 253, 2012.
8. Хисамутдинов Э.Ф. Изучение механизма комплексообразования глицирризиновой кислоты с противотуберкулезными препаратами: тубазид и фтивазид методами спектроскопии ЯМР //Вып. работа. – Ташкент. 2005.
9. Friis-Moller A, Chen M, Fuursted K, Christensen SB, Kharazami A. In vitro antimycobacterial and antilegionwlla activity of licochalcone A from Chinese licorice roots. *Planta Med*. 2002, 68 (5): 416-419.
10. Gupta VK, Atiya F, Faridi U, Negi AS, Shanker K, Kumar JK, Rahuja N, Lugman S, Sisodia BS, Saikia D, Darorkan MP, Khanuja SP. Antimicrobial potential of *Glycyrrhiza glabra* roots. *J Ethnopharmacol* 2008, 116 (2): 377-380.
11. Smith I. *Mycobacterium tuberculosis* pathogenesis and molecular determinants of virulence. *Clin Microbiol Rev*. 2003; 16(3): 463-496.
12. Xuezhong Zhou, Li Zhao, Xiaoming Liu, Xueqiang Li, Fang Jia, Yuyan Zhang and Yujiong Wang. Antimycobacterial and Synergistic Effects of 18β-Glycyrrhetic Acid or Glycyrrhetic acid-30-piperazine in Combination with Isoniazid, Rifampicin or Streptomycin against *Mycobacterium bovis*. *Phytotherapy research*. 26: 253–258. 8 June 2011.



УДК: 66.097.3+547.362

Рустам ЧОРИЕВ,

Доцент Ташкентский химико-технологический институт

E-mail: choriyevrustam01@gmail.com

Борййхон МУХИТДИНОВ,

Соискатель Ташкентский Государственный технический университет

E-mail: boriyhonmuxiddinov@mail.ru

Садриддин ТУРОБЖОНОВ,

Ректор Ташкентский Государственный технический университет

E-mail: tur_sad@mail.ru tkti.kodirov@mail.ru

Хасан КАДИРОВ

Профессор Ташкентский химико-технологический институт

E-mail: tkti.kodirov@mail.ru

Рецензент профессор М.Махкамов

THE SELECTION OF CATALYSTS FOR THE SYNTHESIS OF ACETONITRILE FROM ACETYLENE AND AMMONIA

Annotation

A single-stage, continuous catalytic method for the synthesis of acetonitrile based on acetylene and ammonia is proposed. For the first time mixed multifunctional catalysts were used in the synthesis of acetonitrile. New highly active, stable catalytic systems based on zinc, chromium, iron and aluminum compounds have been developed. Optimal process parameters were found. The dependence of the activity of the catalyst on its composition has been established. It is shown that by creating active centers on the surface and regulating the catalyst, it is possible to direct the reaction towards the formation of the target product.

Key words: Acetylene, ammonia, acetonitrile, paraffin phase, catalysis, catalyst, selectivity, conversion, regeneration, diffusion region

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДБОРА КАТАЛИЗАТОРОВ ДЛЯ СИНТЕЗА АЦЕТИЛЕНА И АММИАКА

Аннотация

Предложен одностадийный, непрерывный каталитический метод синтеза ацетонитрила на основе ацетилена и аммиака. Впервые в синтезе ацетонитрила использованы смешанные полифункциональные катализаторы. Разработаны новые высокоактивные, стабильные каталитические системы на основе соединения цинка, хрома, железа и алюминия. Найден оптимальные параметры процесса. Установлена зависимость активности катализатора, от его состава. Показано, что созданием активных центров на поверхности и регулированием катализатора можно направить реакцию в сторону образования целевого продукта.

Ключевые слова: Ацетилен, аммиак, ацетонитрил, парафазная фаза, катализ, катализатор, селективность, конверсия, регенерация, диффузионная область

ATSETILEN VA AMMIK ASOSIDA ATSETONITRIL SINTEZI UCHUN KATALIZATORLAR TANLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Atsetilen va ammiak asosida atsetonitрил синтез qilishning bir bosqichli, uzluksiz katalitik usuli tavsiya qilingan. Ilk bor atsetonitрил синтезida aralash polifunksional katalizatorlardan foydalanilgan. Rux, xrom, temir va alyuminiy birikmalari asosida barqaror, yuqorisamarali katalitik sistemalar taribi tavsiya etilib, atsetonitрил синтез qilishning mabql sharoitlari aniqlangan. Katalizator faoligi va tarkib orasidagi bog'liqlik aniqlanib, katalizator ta'sir yuzasida faol markazlarning hosil qilinishi bilan reaksiyani masadli qo'natirish mumkinlii asoslangan.

Klyucheviye slova: Atsetilen, ammiak, atsetonitрил, bug' faza, kataliz, katalizator, selektivlik, konversiya, regeneratsiya, diffuzion soha,

Разработка безотходной, ресурсосберегающей технологии переработки местного сырья и промышленных отходов, с целью получения импортозамещаемых, продуктов является одной из актуальных задач науки и техники.

Ацетилен является ценным сырьём для получения многих практически важных соединений. На его основе выпускаются сотни видов важнейших продуктов и полупродуктов тонкого и основного органического синтеза.

В АО «Навоизот» существуют пиролизные установки, которые на базе природного газа позволяют вырабатывать до 30 тысяч тонн ацетилена в год.

С вводом в действие Шуртанского газо-химического комплекса появляется возможность получить дополнительно до 2,5 тысяч тонн ацетилена, который образуется в качестве побочного продукта в производстве этилена.

В связи с этим, весьма целесообразным является поиск новых технологий переработки ацетилена. Одной из перспективных направлений переработки ацетилена является получение на его основе ацетонитрила.

Ацетонитрил это, обычно используемый полярный апротонный растворитель для органических реакций и производства фармацевтических препаратов, пестицидов и парфюмерии; используется как подвижная фаза в ВЭЖХ; доступны в различных классах реагентов [1-3].

Широкое промышленное применение ацетонитрила задерживается из-за отсутствия дешевых и удобных методов его получения. Поэтому создание новых методов синтеза ацетонитрила из более доступных соединений и подбор активных катализаторов, обладающих высокой селективностью и производительностью, является актуальной задачей.

Целью настоящего исследования является изучение механизма и некоторых закономерностей образования ацетонитрила на основе ацетилен в присутствии гетерогенных катализаторов.

Первые синтезы ацетонитрила из ацетилен и аммиака приведены в работах известных химиков [4-6], которые, пропуская смесь ацетилен с аммиаком или синильной кислоты без катализатора в раскаленную трубку, получили ацетонитрил, смесь азотсодержащих оснований и др.

Изучением реакции конденсации ацетилен с аммиаком занимались в начале XX века известные русские химики - органики Чичибабин А.Е. и Мошкин П.А., которые, пропуская смесь ацетилен с аммиаком над катализаторами, содержащими оксиды алюминия, хрома, железа, выделяли ацетонитрил, смесь пиридиновых оснований, этиламины, смолу и др. [7,8].

После исследований Чичибабина А.Е. появились несколько работ, в основном, патентного характера, посвященных изучению каталитической конденсации ацетилен с аммиаком. Основными продуктами реакции были либо ацетонитрил, либо смесь пиридиновых оснований. Газофазной конденсацией ацетилен с аммиаком в присутствии гетерогенных катализаторов усиленно занимались немецкие, японские и американские исследователи. Основное внимание было направлено на подбор катализаторов. Выделение продуктов реакции проводили дистилляцией, а идентификацию веществ - по температурам кипения низких фракций. В некоторых работах приводятся температуры кипения широких фракций, что не дает никаких представлений о составе строения и выходе индивидуальных соединений. Недостаточно изучено влияние различных факторов на ход процесса: температура, объемная скорость, соотношение исходных компонентов, состав катализатора и т.д. Исходя из вышеизложенного, указанные работы не вышли за рамки лабораторных исследований.

Изучив реакции ацетилен с аммиаком в присутствии солей меди, ртути, цинка, кадмия и железа на носителях при 290 – 400 °С, авторы работы [9] получили смесь ацетонитрила с пиридиновыми основаниями. При этом содержание ацетонитрила в катализате колебалось до 30%. Испробованы оксиды различных металлов в качестве катализаторов данного процесса. В присутствии оксидов кадмия и цинка на носителях получен катализат, содержащий от 10 до 90% пиридиновых оснований [10]. Однако состав и строение полученных продуктов не установлены, отсутствуют данные о сроке службы применяемых катализаторов. При использовании в качестве контакта для указанной реакции хлоридов цинка, кадмия, железа и меди [11] из 100 литров ацетилен и 100 литров аммиака получено 90-95 г катализата, состоящего из ацетонитрила, этил-, диэтил- и триэтиламинов, пиридиновых оснований, смол и др.

В присутствии оксида цинка на оксиде алюминия, промотированного небольшим количеством (0,2 %) оксида хрома, из уксусной кислоты и аммиака в качестве главного продукта получили ацетонитрил [12]. Замена оксида хрома на молибдат аммония в контактной массе приводит к сдвигу направления процесса в сторону образования гетероциклических либо ацетонитрил, либо смесь пиридиновых оснований. Газофазной конденсацией ацетилен с аммиаком в присутствии гетерогенных катализаторов усиленно занимались немецкие, японские и американские исследователи. Основное внимание было направлено на подбор катализаторов. Выделение продуктов реакции проводили дистилляцией, а идентификацию веществ - по температурам кипения низких фракций. В некоторых работах приводятся температуры кипения широких фракций, что не дает никаких представлений о составе строения и выходе индивидуальных соединений. Недостаточно изучено влияние различных факторов на ход процесса: температура, объемная скорость, соотношение исходных компонентов, состав катализатора и т.д. Исходя из вышеизложенного, указанные работы не вышли за рамки лабораторных исследований.

Экспериментальная часть. Катализаторы готовили методом «горячей пропитки». Для получения носителя гидроксид алюминия (ППП - 78 %) и (ИПП - 33 %) пептизировали, добавляя раствор азотной кислоты с массовой долей 54 - 56 % или растворы соляной, плавиковой или уксусной кислоты (3 - 5 %-ные растворы). Интенсивно перемешивали до образования однородной пасты. Приготовленную пасту формовали под давлением около 0,2 МПа, продавливая ее через фильтры диаметром 3 мм. Полученные цилиндры провяливали на воздухе в течение 16 - 24 часов, измельчали до размера 2,5 × 2 мм или 4 × 5 мм, просушивали при температуре 120 °С восемь часов, прокаливали при 450 °С в течение четырех часов.

Для получения катализатора горячей пропиткой носитель - Al_2O_3 нагревали до температуры 300-350 °С и быстро засыпали в раствор активных компонентов. При этом происходит бурное выделение оксидов азота. Катализатор положили в муфельную печь и при перемешивании продолжали нагревание до полного исчезновения оксидов азота. Катализатор прокаливали при температуре 360 - 450 °С в течение 3 часов, выдерживая при 450 °С 2 часа. Готовый катализатор отсеивали от пыли.

Обсуждение результатов. Реакция конденсации ацетилен с аммиаком и другими органическими соединениями является сложным последовательно - параллельным многостадийным процессом, включающим несколько стадий, главными из которых являются: подвод реагентов к поверхности катализатора; ориентация молекул в поле поверхности; адсорбция, активация реагентов; химическое превращение активировано адсорбированными молекулами; десорбция; отвод продуктов реакции от поверхности в объем.

Очевидно, что для такого процесса катализатор должен иметь систему разных каталитически активных центров или, при небольшом наборе компонентов, сочетать различные каталитические свойства, обладать способностью вступать в одну и ту же реакцию многократно, саморегенерируясь, малыми контактами изменять большое количество реагентов.

При **выборе** катализатора также следует учитывать, что ацетилен реагирует с комплексообразователем по типу донорно-акцепторного взаимодействия, т.е. активация ацетилен характеризуется, с одной стороны, его деформацией вследствие частичного смещения пары sp -электронов ацетилен на свободные s -орбиты иона, и с другой стороны,

образованием так называемой дативной или донорной π -связи, заключающейся в переходе электронов с d-орбиты иона металла на разрыхляющую орбиту ацетилена.

При этом катализатор должен быть способен к активации не только ацетилена, но и присоединяемой к нему молекулы аммиака.

Активация ацетилена в отношении присоединяемого к нему нуклеофила (NH_3) при повышенных температурах может быть обеспечена апротонными кислотными центрами Al_2O_3 , AlF_3 и соединениями Zn (II), Cd (II), Cr (III), Ni (II), Fe (II, III). Соединения этих металлов увеличивают свои электронно-акцепторные свойства именно с повышением температуры. Основными центрами катализатора, способствующими отщеплению протона от аммиака и образованию нуклеофила (NH_2^-), связанного с металлом, могут служить атомы кислорода оксидов, поверхностные группы и галогенид-ионы (F^-). Протонные кислотные центры поверхности вряд ли могут участвовать в активации ацетилена из-за большого различия в основности аммиака и ацетилена.

Рассмотрим подробнее известную информацию о применении различных катализаторов в рассматриваемой реакции и о некоторых их свойствах. Наиболее распространенными среди высокотемпературных катализаторов, применяющихся в различных реакциях, является $\gamma\text{-Al}_2\text{O}_3$, который проявляет умеренную активность и в синтезе ацетонитрила из ацетилена и аммиака. При относительно низких температурах 350-400 °C, $\gamma\text{-Al}_2\text{O}_3$ катализирует реакцию аммонолиза ацетилена в направлении образования сложной смеси азотсодержащих гетероциклов. Повышение температуры до 500 - 550 °C направляет реакцию в сторону образования ацетонитрила. При относительно низких температурах преобладает, по-видимому, реакция дегидроциклизации образовавшегося промежуточного виниламина или его изомера - этилиденимина до пиридиновых оснований, повышение же температуры способствует протеканию реакции дегидрирования виниламина или этилиденимина до ацетонитрила. Оксид алюминия может катализировать реакцию присоединения аммиака к ацетилену в интервале 350 - 550 °C. В чистом виде оксид алюминия, как катализатор реакции получения ацетонитрила, уступает известным катализаторам. Синтез ацетонитрила улучшается в результате промотирования оксида алюминия небольшими количествами щелочи. Но и в этом случае наблюдаются полимеризация и крекинг ацетилена, вследствие чего на катализаторе образуются кокс и смола, приводящие к снижению длительности его работы. Обработка оксида алюминия минеральными и органическими кислотами увеличивает кислотность катализатора, конверсию исходных веществ и уменьшает удельную поверхность: обработка оксида алюминия 2,8 - 6,0 % - ным раствором фтористоводородной кислоты приводит к уменьшению удельной поверхности от 240 до 170 м²/г, возрастанию кислотности от 0,53 до 0,8 мл 0,1 н - бутиламина на 1 г катализатора и увеличению степени конверсии в 5-6 раз.

Усиление каталитических свойств оксида алюминия при обработке фтористоводородной кислотой может быть с появлением более сильных апротонных центров типа $\text{Al}(\text{OH})_2\text{F}$, способных активировать и ацетилен, и аммиак, а также более сильных основных центров (OH^- , F^-), обеспечивающих отрыв протона от аммиака.

Относительно большую каталитическую активность во многих реакциях проявляют d-металлов побочной подгруппы VI группы периодической системы. В литературе мало данных по использованию соединений подгруппы хрома в качестве контактов в реакции ацетиленовых соединений с аммиаком. Юсуповым Д. и др. показано, что соединения хрома, в особенности - оксид хрома (III), проявляют большую активность в данной реакции на катализаторе $\text{Cr}_2\text{O}_3/\text{Al}_2\text{O}_3$. Из ацетилена и аммиака получен ацетонитрил с 46 %-ным выходом. Причиной образования ацетонитрила на хромовом катализаторе является то, что оксид хрома обладает хорошими дегидрирующими свойствами. Промежуточное соединение, образующееся из ацетилена и аммиака, быстро дегидрируется в ацетонитрил.

В ходе исследования промотирования соединений кадмия и цинка фторидами и свойств других полифункциональных каталитических систем рентгенографическим анализом было установлено, что фториды цинка, кадмия, железа, алюминия и других металлов во время приготовления частично гидролизуются и образуют гидроксифториды состава: $\text{Cd}(\text{OH})\text{F}$, $\text{Zn}(\text{OH})\text{F}$, $\text{Al}(\text{OH})_2\text{F}$ и др., которые создают на поверхности катализаторов активные центры и, судя по всему ответственны за высокую каталитическую активность получаемых катализаторов.

Экспериментально установлено, что при наличии оксидов цинка и хрома (железа) в составе катализатора 3-5% масс, наряду с гидроксифторидами цинка и кадмия, катализаторы проявляют достаточную активность и селективность в синтезе гетероциклических соединений из ацетилена и аммиака. Оксиды цинка и хрома на носителях проявляют достаточно высокую активность в синтезе ацетонитрила из ацетилена и аммиака.

В ходе исследования изучали влияние температуры, объемного соотношения аммиака к ацетилену, объемной скорости и др. на выход ацетонитрила. Анализ катализат показал, что в присутствии алюмохромового катализатора из ацетилена и аммиака образуется в основном ацетонитрил. При этом температура процесса снижается до 60 - 140 °C по сравнению с известными катализаторами, например, оксида цинка или оксида алюминия. Катализатор, не снижая свою первоначальную активность, работает в течение 18 часов, после чего требуется его регенерация.

С целью определения ресурса работы катализатора и установления основных параметров процесса выполнена серия экспериментов на одном образце катализатора КФА - 1. Опыты проводили на лабораторной установке в реакторе из нержавеющей стали со 100 см насыпного объема катализатора с общей объемной скоростью 180-200 л/л-кат-час (табл.1).

Таблица 1

Основные показатели работы КФА-1 катализатора

Время от начала опыта, час	Температура, °C	Конверсия ацетилена %	Состав жидких продуктов, % масс			
			Ацетонитрил	2-метилпиридин	4-метилпиридин	Высшие пиридины
8	260	42,0	72,0	15,0	8,0	3,0
16	270	54,0	66,0	18,0	10,0	5,0
26	280	65,0	53,0	26,0	14,0	6,0
43	292	74,0	52,0	34,0	12,0	1,0
